

KO'RISHDA, ESHITISHDA VA YENGIL DARAJADAGI AQLIY RIVOJLANISHIDA MUAMMOSI BO'LGAN BOLALAR INKLYUZIV TA'LIMDA SINIF XONALARI VA DARS JARAYONINI MOSLASHTIRISH.

Usmonova

Shoira Dilshod qizi, JDPU talabasi

**Annotatsiya:** Ko'rish, eshitish va yengil darajadagi aqliy rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'limga jalb etish uchun sinf xonalari va dars jarayonini moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada maxsus ehtiyojli o'quvchilar uchun fizik muhitni moslashtirish, o'quv materiallarini adaptatsiya qilish, interfaol o'qitish metodlaridan foydalanish, individual yondashuv va texnik vositalardan foydalanish masalalari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, pedagog va o'quvchilarning inklyuziv ta'lim sharoitiga moslashish jarayoni, xalqaro tajribalar va milliy qonunchilik asosida samarali usullar tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Inklyuziv ta'lim, maxsus ehtiyojli bolalar, ko'rish qobiliyati cheklangan o'quvchilar, eshitish qobiliyati cheklangan o'quvchilar, yengil darajadagi aqliy rivojlanish buzilishi, sinf xonalarini moslashtirish, pedagogik adaptatsiya, interfaol metodlar, texnik vositalar, individual ta'lim dasturi, differensial yondashuv, rehabilitatsiya, maxsus pedagogika.

**Abstract:** Adapting classrooms and the teaching process is important for involving children with visual, hearing, and mild intellectual disabilities in inclusive education. This article examines the issues of adapting the physical environment for students with special needs, adapting educational materials, using interactive teaching methods, and using individual approaches and technical means. It also analyzes the process of adaptation of teachers and students to inclusive education, effective methods based on international experience and national legislation.

**Keywords:**Inclusive education, children with special needs, students with visual impairments, students with hearing impairments, mild intellectual disabilities, adapting classrooms, pedagogical adaptation, interactive methods, technical means, individual educational program, differential approach, rehabilitation, special pedagogy.

**Абстрактный:**Важно адаптировать классы и учебный процесс для вовлечения в инклюзивное образование детей с нарушениями зрения, слуха и легкими нарушениями интеллектуального развития. В данной статье рассматриваются вопросы адаптации физической среды для учащихся с особыми потребностями, адаптации учебных материалов, использования интерактивных методов обучения, индивидуального подхода и использования технических средств. Также анализируются процесс адаптации педагогов и студентов к условиям инклюзивного образования, эффективные методы, основанные на международном опыте и национальном законодательстве.

**Ключевые слова:**Инклюзивное образование, дети с особыми потребностями, слабовидящие школьники, слабослышащие школьники, легкие нарушения интеллектуального развития, адаптация учебных помещений, педагогическая адаптация, интерактивные методы, технические средства, индивидуальная программа обучения, дифференцированный подход, реабилитация, специальная педагогика.

**Kirish:**

Ushbu alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalar orasida ko'rishda muammosi bo'lgan bolalar ta'limi juda ham qiziqarli hisoblanadi.

Ko'rishda muammosi bo'lgan bolalar ko'ruv o'tkirligiga ko'ra 2turga bo'linadi:

1.Total ko'rlar-ko'rish o'tkirligi 0 bo'lgan bolalar.Brayl tizimidagi yozuv asosida o'qiydi va yozadilar.

2. Qisman ko'rlar-ko'rish o'tkirligi 0,05 bo'lgan bolalar saqlangan ko'rish imkoniyatidan foydalanib oddiy yozuvda o'qishi va yozishi mumkin.

Zaif ko'ruvchilar ko'rish o'tkirligiga ko'ra quyidagicha turga bo'linadi:

- a) Ko'ruv o'tkirligi 0,05dan 0,1gacha
- b) Ko'ruv o'tkirligi 0,1dan 0,2gacha
- c) Ko'ruv o'tkirligi 0,2dan yuqori va 0,4gacha

Ko'zi ojiz bolalar dars jarayoni o'quv materiallarini taktil sezish va eshitish asosida o'zlashtiradilar. Ko'zoynak taqib yurishi kerak bo'lgan bolalarga tegishli sanatoriya-gigena sharoitlari yaratilishi zarur. Bolaning ish o'rni to'g'ri va yetarli darajada yoritilgan bo'lishi zarur. Bola doska, jadval, kartada chizilgan tasvirlar va boshqa o'quv materiallarini qanchalik aniq ko'rayotganiga e'tibor beriladi. Alohida yordamga muhtoj refraksiyali bolalarning ko'zi tez charchab qolishini hisobga olib, dars vaqtida ularga ish turlarini mumkin qadar o'zgartirib turish, ko'z qadash bilan bog'liq bo'lgan ishlar, topshiriqlar hajmini g'oyat jiddiy nazorat qilib borish talab qilinadi. Bolalarni ijtimoiy hayotdagi jarayonlarini o'rganishga va so'z boyligini rivojlantirish uchun birinchi navbatda turli xil rag'batlantirish ishlarini tashkil etish zarur. Uy sharoitida mavjud bo'lgan barcha predmetlarni ko'rinishlari, tovushlari, hidlarini tushuntirish, hamda har holatda bolaga dalda bo'lish kerak. Shuningdek, ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarga kundalik turmush ko'nikmalarini qanday ovqatlanish, kiyinish, yuvish va boshqalarni muntazam ravishda o'rgatib borish kerak.

Tiflopedagog o'qituvchining vazifalari:

1. Ko'rishda muammosi bo'lgan o'quvchilarni har tomonlama rivojlantirish, jumladan: pedagogik va psixologik jihatdan o'rganish, nuqsonlarning turlarini aniqlashtirish, jismoniy va ruhiy jihatdan rivojlantirish;

2.Ko'rishda muammosi bo'lgan o'quvchilar ta'lim-tarbiyasining maqsadi,mazmuni,vazifalari va metodlarini qayta ishlash;

3.Bola shahsiyatini har tomonlama rivojlantirish uchun barcha maxsus mo'ljallangan ishlarni amalga oshirish;

4.O'quvchilarni mehnatga va kasb-hunarga yo'naltirilgan imkoniyatlarini yaratish;

5.Maxsus o'quv rejalar,dasturlar va darsliklarni tuzish;

6.Inklyuziv ta'lim joriy qilingan maktablarni rivojlantirishni yo'lga qo'yish.

Davolash va tiklash ishlari faqatgina okulist rahbarligida amalga oshiriladi.Boshlang'ich sinf o'quvchisi hamda maxsus o'qituvchi ham shifokor tavsiyalarini o'z vaqtida bajarishga yordam beradilar.Ko'zoynak va boshqa option ko'ruvchi,korreksiyalovchi vositalarni tavsiya qilish davolash ishining asosi hisoblanadi.Pedagog va tarbiyachilar bolalarni ko'zoynaklardan shifokor tavsiya qilgandek to'g'ri foydalanishlarini nazorat qiladi.Ko'zoynakni oprovasini(qolipi)to'g'ri tanlash muhim ro'l o'ynaydi.U yuz hajmini qorachiqlar orasidagi masofaga mos tushishi shart,quloqlarni,burunlarni qismasligi lozim.

Bugungi kunda eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalr va o'smirlarga nisbatan g'amxo'rlik,ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash,ta'lim-tarbiya jarayonini ularga mos ravishda tashkil etish,sog'lom jamiyatga tenglashtirishdek o'ta mas'ulyatli vazifalar bir qator me'yoriy hujjatlarda o'z ifodasini topgan bo'lib,asosiy maqsad o'quvchilarni mustaqil hayotga va kasb-hunarga tayyorlash,jamiyatda o'z o'rinlarini topishlariga yordam berishdan iboratdir.Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berishni erta boshlashning ahamiyati juda katta.Bu haqda faylasuf va olimlar ko'plab dikr bildirgan.Chunki maktabgacha yosh davri inson hayotida muhim,aytish mumkinki,hal qiluvchi vaqt bo'lib hisoblanadi.Bu davrda asosiy odatlar,ko'nikmalarshakllanadi,xarakter belgilanadi,ya'ni bundan keyingi hayot asoslari quriladi.Bolalarning eshitish darajalari turli xil shaklida belgilanadi:



1. Sog'lom bolaning eshitish darajasi-23dan...25dBgacha;
2. Zaif eshituvchi bola-26dan...60dBgacha;
3. Karlik holati-61dan...100dBgacha.

Alohida yordamga muhtoj bolalarning atorfidagi yaqin kishilari va o'rtoqlari bilan muloqoti uning nutqiy faoliyatini yuzaga kelishiga turtki bo'ladi. U quyidagi bosqichda amalga oshadi:

1. Predmetning, voqeaning o'zi, rasmi yoki yozma va ekrandagi namoyishi.
2. Ko'rsatilganlarni nomlash (daktil va grafik bosma harflarda va albatta og'zaki)
3. Nomlaganlarini nutqida qo'llash.
4. Mustaqil ifodalash.

Eslatma!: kar va zaif eshituvchi bolalar dastlab so'zlarning to'g'ri holatiga yaqin, ya'ni konturini aytishi mumkin, masalan kitob so'zi, dastlab bola sizning labingiz xolati, tilingizning harakatiga qarab- a tab , yoki – tab deb talaffuz qilishi mumkin. Shunda siz bolani ham o'zingizni ham qiynab, -tab emas, -maktab deb to'g'ri aytishini talab qilmang. Chunki bola keyinchalik xato qilib qo'yishdan qo'rqib, umuman bir so'z ham aytmay qo'yishi mumkin. Bola bilan talaffuz mashqlari maxsus o'tkazilgandan va albatta bolaning eshitish va talaffuz ko'nikmalari shakllantirilgandan keyin to'g'ri xolatini talaffuz qilish talabi qo'yilsa, maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar bilan ishlash - bu bolaning shaxsiy rivojlanishi bilan birga, kognitiv va hissiy-ixtiyoriy sohaning aniqlangan buzilishlarini tuzatish zaruratini ham amalga oshiradi. Ta'limning hayot bilan bog'liqligi printsipti o'qitish mazmunini rejalashtirilganligi ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning ham salbiy hususiyatlarini kamayishiga va ijobiy hislatlarini rivojlanishiga sabab bo'ladi. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan o'quvchilarni o'qitishda tizimlilik va izchillik tamoyili bilan bilim, ko'nikma va malakalarni ma'lum tartibda, o'quv materialining har bir elementi boshqalari bilan mantiqan bog'langan, keyingisi esa avvalgisiga asoslangan tizimda shakllantirilishini talab qiladi. O'quv jarayonining samarali ishlashi

uchun maqbul sharoitlarni yaratish printsipligiga rioya qilishning talab etadi. Og'zaki, vizual va amaliy o'qitish usullarining maqbul kombinatsiyasini tanlab olish kerak va bilim, ko'nikmalarni egallash jarayonining samaradorligi oshirish uchun insonning barcha hissiyotlari: eshitish, ko'rish, teginish jarayonidan maksimal darajada foydalanish talab etiladi. Ko'rib chiqilayotgan ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar toifasiga nisbatan ushbu printsipligiga og'zaki, vizual va amaliy usullardan o'qitish maqsadida ham, tuzatish va rivojlantirish uchun ham foydalanishni o'z ichiga oladi. O'qitishda faoliyat yondashuvi printsipligiga maktab o'quvchilarini o'qitishda predmetli-amaliy faoliyatning rolini oshiradi, bu davrda idrok, e'tibor, xotira, fikrlash jarayonlari va nutq rivojlanadi. Umuman olib aytganda ham ko'rib, ham eshitib, ham amaliy bajarishi bolaning darsni o'zlashtirish darajasini oshirishga olib keladi. Ko'zini oldida narsa, buyum, yoki hodisa to'g'risida tasavvur va tushuncha paydo bo'ladi. Ko'proq ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarni darsni o'zlashtira olmasligiga olib keluvchi omil bu uning uchun murakkab ko'rsatmalar mavjudligida namoyon bo'ladi. Vazifani qisqa segmentlarda bo'lishi hamda uni bolaga bosqichma-bosqich taqdim etish, vazifani juda aniq shakllantirish kerak. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning yuqori darajada charchashi, haddan tashqari hayajon shaklida bo'lishi mumkin. Shuning uchun bolada charchoq boshlanganidan keyin faoliyatni davom ettirishga majbur qilmaslik, vaqtda bolaga dam olishiga sharoit yaratib berish kerak bo'ladi.

Yana shuni ta'kidlab o'tish lozim korreksion rivojlantiruvchi o'quv vazifalari ruhiy rivojlanishi sustlashgan o'quvchini diqqati, xotirasi, bilish faoliyatlari, qobiliyati, tafakkuri va nutqining rivojlanishiga olib keladi. Korreksion rivojlantiruvchi mashqlarni asosan maxsus o'qituvchi va psixolog tomonidan amalga oshiriladi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi ham dars mashg'ulotlarida barcha o'quvchilar uchun o'tayotgan mavzusiga oid foydali korreksion mashg'ulotlaridan foydalanishi maqsadga muvofiqdir. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolaning muloqot qobiliyatlarini shakllantirish bolani faol nutq muhitiga imkoniyatidan kelib chiqqan holda maksimal darajada singdirishni taqozo qiladi. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar diqqat barqarorligining past darajasiga ega, shuning uchun bolalar e'tiborini diqqat

barqarorligini rivojlantirishga yo'naltiruvchi metodlarni dars davomida ko'proq qo'llash kerak. Ularga dars mashg'ulotini egallash uchun ko'proq namunalar bilan ishlashi, berilgan topshiriqni qaytib -qayta bajartirib bilim va ko'nikmasini shakllantirish lozim. Lekin bajartirishga majburlamaslik kerak. Bola tez o'qishdan charchab sovub qolishi mumkin. Ruhiiy rivojlanishi sustlashgan bolalarni ota-onalari bilan ishlash juda muhim. Ruhiiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning ota-onalari uyda bolani nimani o'rgatish kerakligi va qanday o'rgatish kerakligi to'g'risida boshlang'ich sinf o'qituvchisi va maxsus o'qituvchidan doimiy pedagogik maslahatlar olib turishi kerak bo'ladi. O'qituvchilar faoliyatida psixologik-pedagogik tadbirlar majmuasida ota-onalarning rolini faollashtirish ta'minlaydi: Bu faollik nima uchun kerak? Bolaga qo'yiladigan talablarning birligi uchun kerak. Darsda o'zlashtirgan bilimlarini mustahkamlash uchun uyga berilgan vazifalarni albatta ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar bilan birga ota-onalar o'tirib ishlaydilar. O'qituvchining bolaga qo'yadigan talabi ya'ni undan qay darajada vazifani talabqilishini ota-ona ham bilishi kerak. Chunki o'qituvchi ham ota-ona ham bolaning imkoniyatlarini qay darajadiligini bilgan holda vazifa beradi va imkoniyatidarasida vazifani nazorat qiladi. Sog'lom bolalarning ota-onalarining alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalar va ularning oilalariga nisbatan tolerantlikmunosabatni shakllantirishga qaratilgan ishlarni ham amalga oshirish muhimdir. Bolaga uning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda o'z vaqtida yordam ko'rsatish; Ruhiiy rivojlanishi sustlashgan bolalarda turli fiziologik ehtiyojlarini, individual xususiyatlarini hisobga olish. Darsda uzoq muddat o'tirishga qiynalishi, charchab qolishi mumkin bunday vaziyatda tyutor yoki maxsus o'qituvchi, psixolog tomonidan korreksion mashqlar o'tiladigan xonaga yoki psixologning xonasida dam olish burchaklari bo'lsa u yerga olib chiqib bolaga sharoit yaratib berish lozim. Turli harakatlarni amalga oshirishi, diqqatini tez- tez buzilishi yoki diqqatini jamlay olmasligi kabi hususiyatlarini hisobga olish va shunga qarab ta'limdagi korreksion ishlarni amalga oshirish lozim. Bolaning sog'lig'ini himoya qilish va mustahkamlashni kuzatib boring. Sinfda jismoniy tarbiya, jismoniy madaniyat va sog'lomlashtirish o'zgarishi, dinamik soatlar, ochiq havoda mashg'ulotlarni tashkil

etish orqali psixofizik ortiqcha yuklarning, hissiy buzilishlarning, bolalarning shikastlanishining oldini olish mumkin. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning oddiy kichik bir yutuqlarini ham doimiy e'tirof etib borish kerak. Bu ularning o'quv faoliyatiga qiziqishiga va darsda faol qatnashishiga turtki bo'ladi. Ham boshqa bolalar bilan tengligini, uning ham yutuqlari borligini his qiladi. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarni har qanday qo'llab-quvvatlash bu ularning kognitiv qiziqishni oshirishga, xulq-atvorning o'zboshimchalik shakllarini kamaytirishga, o'quv faoliyatining rivojlantirishga olib keladi. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning aqliy rivojlanishidagi kamchiliklarni muvaffaqiyatli tuzatishning muhim sharti-bu to'g'ri tashkil etilgan shart-sharoitlarda, mumkin bo'lgan pedagogik ta'sirning yetarliligi, bolaning individual xususiyatlariga mos keladigan o'qitish usullari, ya'ni rivojlanishni rag'batlantiradigan va bolaning haqiqiy imkoniyatlariga mos keladigan o'qitish usullarini to'g'ri tashkil etish natijasida inklyuziv sinflardagi ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarni aqliy jihatdan rivojlantirish mumkin.

#### Xulosa

Ko'rish, eshitish va yengil darajadagi aqliy rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'limga jalb etish sinf xonalarini moslashtirish, pedagogik yondashuvni o'zgartirish va texnologik vositalardan foydalanish kabi kompleks chora-tadbirlarni talab etadi.

#### Fydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Nazarova, N. G. (2020). Defektologiya va inklyuziv ta'lim asoslari. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim vazirligi.

O'zbekistonda inklyuziv ta'limni tashkil etish va pedagogik moslashtirish bo'yicha amaliy qo'llanma.

2. Mirziyoeva, S. S., & Turdiyev, S. A. (2021). Maxsus pedagogika va defektologiya asoslari. Toshkent: "Fan va texnologiya" nashriyoti.



Ko'rish va eshitish qobiliyati cheklangan bolalar bilan ishlash bo'yicha ilmiy tavsiyalar.

3.O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (2020). Toshkent: Adolat nashriyoti.

Inklyuziv ta'limning qonuniy asoslari.

4. O'zbekiston Respublikasi "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonuni (2021). Toshkent: Adolat nashriyoti.

Maxsus ehtiyojli bolalar uchun ta'lim va ijtimoiy himoya bo'yicha rasmiy me'yorlar.

5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori (2022). Nogiron bolalarni ta'lim tizimiga jalb qilish va ularning huquqlarini ta'minlash bo'yicha davlat dasturi.

6.L.R.Gaynutdinova "Ruhij rivojlanishi sustlashgan bolalar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya mazmuni va jaroyoni".

7.L.R.Gaynutdinova "Eshitish imkoni cheklangan bola -ta'lim olish imkonidan cheklangan emas".

8.L.R.Gaynutdinova "Ko'rishida muammosi bo'lgan bolalarning ijtimoiy hayotga moslashishida oilaning roli"